



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

https://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/articles/2022/iqt_inn_tex_2022_6_11.pdf

[7] Jo'rayeva Z.A. (2023). Raqamli bank xizmatlarining samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (1). – https://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/articles/2023/iqt_inn_tex_2023_1_12.pdf

JIZZAX VILOYATIDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI INVESTITSIYANING O'RNI

i.f.f.d.,(PhD)Saloxitdinov Sherzod Farxodovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Iqtisodiyot va Turizm kafedrası iqtisod fanlari o'qituvchisi

Zayniddinova Latofat Suvan qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti

zayniddinovalatofat235@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jizzax viloyatida innovatsion rivojlanishda investitsiyalarning o'rnini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida amalga oshirilgan innovatsion loyihalar hamda ularga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi o'rganilgan. Shuningdek, investitsiyalar hisobiga hududda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlari yoritilgan. Tahlillar natijasida investitsiyalar innovatsion rivojlanishning asosiy moliyaviy manbasi ekanligi hamda hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, innovatsiya, investitsion faollik, hududiy iqtisodiyot, sanoat modernizatsiyasi, agroinnovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, Jizzax viloyati.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda innovatsion faoliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli innovatsion rivojlanishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda investitsiyalar alohida o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, hududlarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda xizmatlar sohasini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jizzax viloyati ham investitsion jozibadorligi ortib borayotgan hududlardan biri sifatida iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga kirib bormoqda. Viloyatda sanoat zonalarining tashkil etilishi, yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi, qishloq xo‘jaligida resurstejamkor texnologiyalarning joriy qilinishi va xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli tizimlarning rivojlanishi innovatsion faoliyatning faollashuviga xizmat qilmoqda.

Xususan, sanoat tarmoqlarida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi, qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish va agroklaster tizimlarining kengayishi hamda xizmatlar sohasida elektron platformalar va fintech xizmatlarining rivojlanishi hudud iqtisodiyotining tarkibiy o‘zgarishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonlarda investitsiyalar innovatsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy moliyaviy manbasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu jihatdan mazkur maqolada Jizzax viloyatida 2023–2025-yillarda qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida amalga oshirilgan innovatsiyalar hamda ularga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiyalarning hudud innovatsion rivojlanishidagi roli va iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan yoritiladi.

sohalar:	2023-yilda	2024-yilda	2025-yilda
	Agroklasterlar,	Qishloq	Tarmoq
Qishloq xo‘jaligi sohasida	tomchilatib sug‘orish va zamonaviy issiqxona loyihalari joriy etildi. Tarmoq hajmi 27,5 trln so‘mni tashkil etdi. Investitsiyalar resurstejamkor texnologiyalarga yo‘naltirildi.	xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 19,6 trln so‘mga yetdi. 47 ta loyiha doirasida aqlli agrotexnologiyalar va suv tejovchi tizimlar joriy qilindi.	hajmi 24,6 trln so‘mga yetdi. Aqlli sug‘orish va agrotexnologik monitoring tizimlariga investitsiyalar hajmi oshdi.
Sanoat sohasida	Ishlab chiqarish sanoatiga 4,85 trln so‘m investitsiya kiritildi. Xorijiy investitsiyalar ulushi 68,8 % ni tashkil etdi. Avtomatlashtirilgan texnologiyalar joriy qilindi.	Umumiy qiymati 3,1 mlrd dollar bo‘lgan 83 ta yirik loyiha amalga oshirildi. Energiya tejamkor va raqamli boshqaruv tizimlari joriy etildi.	Sanoat mahsulotlari hajmi 26,8 trln so‘mni tashkil etdi. Asosiy kapitalga 18,7 trln so‘m investitsiyalar yo‘naltirildi. Innovatsion ishlab chiqarish kengaydi.
	Elektron xizmatlar, onlayn savdo va logistika platformalari	Fintech, elektron bank xizmatlari va raqamli logistika	Xizmatlar hajmi 16,9 trln so‘mga yetdi va 14,5 % o‘shish

Xizmat ko'rsatish sohasida	rivojlantirildi. Raqamlashtirish jarayonlari kuchaydi.	tizimlari keng joriy qilindi. Xizmatlar ulushi YaHM tarkibida oshdi.	qayd etildi. Elektron xizmatlar va raqamli platformalar faol rivojlandi.
----------------------------	--	--	--

Jizzax viloyatida 2023–2025-yillar davomida qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi innovatsion rivojlanish sur'atlarini jadallashtirganligini ko'rsatmoqda. Jadval ma'lumotlari tahlili shuni anglatadiki, hudud iqtisodiyotida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki texnologik modernizatsiya va raqamli transformatsiyani ta'minlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillarga ko'ra, eng yuqori investitsion faollik sanoat sohasida kuzatilgan. Xususan, 2023-yilda ishlab chiqarish sanoatiga 4,85 trln so'm investitsiya yo'naltirilgani hamda xorijiy investitsiyalar ulushining 68,8 foizni tashkil etgani hududda sanoat modernizatsiyasi jarayonlari kuchayganidan dalolat beradi. Sanoat tarmog'ida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, energiya tejamkor texnologiyalar va raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qilgan. Natijada yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaygan.

2024-yilda sanoatda amalga oshirilgan 3,1 mlrd AQSH dollarilik yirik investitsion loyihalar hudud iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirgan. Mazkur investitsiyalar hisobiga yangi sanoat korxonalari ishga tushirilishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga va eksport salohiyatining kuchayishiga olib kelgan. 2025-yilda esa sanoat mahsulotlari hajmining 26,8 trln so'mga yetishi investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida investitsiyalar asosan resurstejamkor texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan. Xususan, tomchilatib sug'orish tizimlari, agroklastlar va aqlli issiqxona texnologiyalarining keng joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. 2024-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 19,6 trln so'mni tashkil etishi agrar tarmoqda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda esa aqlli sug'orish va agrotexnologik monitoring tizimlariga investitsiyalar hajmining ko'payishi natijasida tarmoq hajmi 24,6 trln so'mga yetgan. Bu esa suv resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini bergan.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanish asosan raqamlashtirish jarayonlari bilan bog'liq holda kechgan. Elektron xizmatlar, fintech tizimlari, elektron savdo va logistika platformalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hududda raqamli iqtisodiyot elementlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Xizmatlar hajmining 2025-yilda 16,9 trln so'mga yetishi hamda 14,5 foizlik o'sish sur'ati qayd etilishi ushbu tarmoqda innovatsion texnologiyalar samaradorligi ortayotganini ko'rsatadi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Sanoat korxonalariga zamonaviy va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun investitsiyalar hajmini oshirish zarur.

2. Qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish, aqlli agrotexnologiyalar va agroklastarlarni keng rivojlantirish lozim.
3. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron xizmatlar, fintech va raqamli logistika tizimlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.
4. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat va xususiy investitsion fondlar faoliyatini kengaytirish kerak.
5. Hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsion muhit va qo'shimcha imtiyozlar yaratish zarur.
6. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion kadrlar tayyorlashni rivojlantirish lozim.
7. Startup va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va investitsion loyihalar bo'yicha ma'lumotlar.–2024. Prezident.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan investitsion va innovatsion loyihalar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar.–2024. Gov.uz
3. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. “2024-yil yanvar–sentabr oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi”. Statistik byulleten. – Jizzax, 2024. Jizzaxstat.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “Jizzax viloyatida ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar”.–2023. Stat.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. “Jizzax viloyatining qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari”.–2024. Stat.uz
6. “Review.uz” iqtisodiy tahlil portali. “2025-yilda Jizzax viloyatining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili”.–2025. Review.uz
7. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
8. Schumpeter J. Capitalism, Socialism and Democracy. – New York: Harper & Brothers, 1942.
9. Isadjanov A.A., Ismailova N.S. “Jahon iqtisodiyotining globallasuvi”. – T.: Iqtisodiyot, 2019.
10. Abduraxmonov F.A. “Iqtisodiy globallasuvning nazariy asoslari”. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, №12, 2023.

AQLLI QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN NASOS TIZIMIDA SUV VA ENERGIYA ISTE'MOLI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI OPTIMALLASHTIRISH

t.f.d.professor Mamatov Narzillo Solidjonovich

"TIQXMMI" MTU Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellekt kafedrasi mudiri